

SOHIBQIRONNING SIYOSIY MAHORATI: KUCH VA AQL UYG'UNLIGI

Po'latova Husnidaxon Odiljon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning yuksak siyosiy mahorati, davlatni boshqarishdagi strategik yondashuvlari hamda ichki va tashqi siyosatda olib borgan izchil faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, uning turli davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari, jumladan Fransiya va Usmonli davlatlari bilan o'rnatilgan siyosiy va iqtisodiy munosabatlari, elchilik aloqalari ochib beriladi. Shu bilan birga Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari, uning xalqaro maydondagi nufuzi va zamonaviy diplomatiya uchun ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar. Amir Temur diplomatiyasi, Boyazid Yildirim, Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma", Karl VI.

Annotation: This article analyzes the high political skill of Amir Temur, his strategic approaches to state governance, and his consistent activities in both internal and foreign policy. It also explores his diplomatic relations with various states, including political and economic ties as well as embassy relations established with France and the Ottoman Empire. Furthermore, the article highlights the distinctive features of Amir Temur's diplomacy, his influence on the international stage, and its significance for modern diplomacy on a scientific basis.

Keywords: Diplomacy of Amir Temur, Bayezid I Yildirim, Nizam al – din Shami – "Zafarnoma", Charles VI

Аннотация. В данной статье анализируются высокие политические навыки Амира Тимура, его стратегические подходы к управлению государством и последовательная деятельность во внутренней и внешней политике. Также раскрываются его дипломатические отношения с различными странами, включая политические и экономические связи с Францией и Османской империей, а также его посольские связи. Одновременно с этим научно освещаются специфические аспекты дипломатии Амира Тимура, его влияние на международной арене и его значение для современной дипломатии.

Ключевые слова: Дипломатия Амира Темура, Баязид Йылдырым, Низам ад-Дин Шами "Зафарнома", Карл VI.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. 1370-yilda Movorounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritib, poytaxtni Samarqandga ko'chirdi. U Eron, Xuroson, Hindiston va Oltin O'rdagacha bo'lgan hududlarni birlashtirib, ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Amir Temur "Kuch-adolatdadir" shiori ostida markazlashgan kuchli davlat, adolatli boshqaruv va mustahkam intizomni qo'ygan. Amir Temur shaxs sifatida saltanat taraqqiyotida katta siyosiy mavqega ega bo'lgan.

U qat'iyatli, olimlar va pirlarning yordamiga tayanadigan, har bir ishni maslahat va mashvarat bilan bajaradigan siyosiy ilmiy, aql-zakovatli, adolatli axloqiy sifatlar egasi bo'lgan.

Amir Temur davlatida yetuk xalqaro diplomatiya an'anasi shakllangan bo'lib, o'zi uning barcha qoidalariga to'la amal qilari edi. Manbalardagi ma'lumotlardan Amir Temurning murakkab sharoitlarda ham sabr-toqat bilan masalaning to'g'ri yechimini topishga harakat qilgani, takabbur, o'ziga qattiq ishongan va bino qo'ygan dushmanlari bilan yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni to'g'ri hal etish uchun yo'l izlaganini guvohi bo'lamiz.

To'xtamish ham Amir Temur yordamida Oltin O'rda xoni bo'lib olsa-da, yaxshilikni unutilib unga dushmanlik qilgani ko'pchilikka ma'lum. Biroq Sohibqiron bu raqibini ham kechiradi va Xitoy yurishi oldidan uning elchilariga yurishdan qaytgach, yordam qilishini aytadi.

Uning Boyazid Yildirimga bo'lgan munosabatini olaylik. Manmanlik va kibr bilan o'ziga haddan tashqari ishongan Boyazid Amir Temurning dushmanlarini qo'llab-quvvatlaydi, iltimos va talablariga haqorat va qo'rslik bilan javob qiladi.

"Changga belangan va holdan toygan omadsiz sultonni Muzaffarning chodiriga keltirganlarida tun cho'kkan edi. Amir Temur o'ynayotgan shatranjini to'xtatib, odat yuzasidan unga bir necha savol berdi. U sulton va uning o'g'illari hayotiga zarar yetkazmaslikka so'z berdi.

Agar ishimiz chappasidan ketib, bugun xudo sening tarafingni olganda, - deya ta'kidladi ulug'amir, - sen menga va lashkarimga qanday munosabatda bo'lishingni hamma bilardi. Ulug'amir umri bo'yi erishgan zafarlarining buyugidan so'ng hotamtoyligini ko'rsatdi¹²", - deb yozadi Lyusen Keren.

Sohibqiron Amir Temur diplomatik munosabatlarda tashabbus ko'rsatib, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga intilgan. Tenglik, raqibiga yon bosish, jo'mardlik kabi fazilatlar uning diplomatiyasiga xos xususiyat edi. U har bir banda irqi, millati, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar Alloh oldida teng" degan tushunchaga tayanib, tashqi siyosatda ham unga amal qilib kelgan.

Amir Temur Yevropa hukmdorlariga "Siz savdogarlaringizni biz tomonlarga yuborsangiz, toki biz ularni qizg'in, barcha izzatlarini o'rniga qo'yib kutib olaylik. Bizning savdogarlarimiz siz tomonga borsalar va ularga ham shunday izzat-ikrom ko'rsatsalar. Mayli ular hech qanday xavf-xatarsiz to'siqsiz yo'l yursinlar. Dunyoni savdogarlar farovon qiladilar degan naqlni inkor etish befoyda¹³- kabi xatlarni yuborgan. Maktub mazmunidan anglash mumkinki, Sohibqiron xalqaro savdoni rivojlantirish uchun savdogarlarga katta imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlarini kengaytirishga va kafolatlashga kafil bo'lgan, qirollarni ham bu savobli ishga undagan. Sohibqironning bu xatti-harakatini olimlar diplomatiyada "qo'l cho'zish siyosati"¹⁴, deb atashadi.

Amir Temurning Karl VI ga yo'llagan yana bir maktubi "Temur Go'ragoniy so'zimiz" degan rasmiy usul bilan boshlanadi. "Olam mash'ali, muzaffar, buyuk do'stimiz, olamga juda zarur, katta urushlar g'olibi, olampanoh Fransiya va boshqa yurtlar qiroliga o'zimizning ta'zim va rahmatimizni yo'llaymiz. Biz sizning davlatingiz doimo gullab-yashnashini do'stona tilab qolamiz", - deya o'zining samimiy fikrlarini izhor etadi. "Sizning nomingiz uzoq yurtlarga ketganligi va boshqa qirollar orasida obro'yingiz baland ekanligini butun

¹² Keren L. Amir Temur saltanati - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - B.132-133.

¹³ Saidov A. Amir Temur va Fransiya...- B.72-82.

¹⁴ Saidov A. Amir Temur va Fransiya...B.76-77.

Sharq taqvodorlari, og'amiz Ioan bizga so'zlab bergan edi", - deya Karl VI ni ulug'laydi. Maktubdagi bu satrlar Sohibqironning go'zal diplomatik usulidan dalolat beradi.

Amir Temur ushbu maktubda Yevropa qirollari va o'zining dushmani Boyazidning ahdini buzgani sababli uning yurtini zabt etganligini alohida ta'kidlab, bu xabarni rohib Ioan tomonidan yetkazilayotganini aytadi. "Buyuk shohlar va do'stlar bir-birlarini katta voqealardan xabardor qilib turishi odat tusiga kirganligi bois biz rohib Ioanni Sizga bizning davlat va bizdagi vaziyat, biz tomonlarda Sizning dushmaningizga qarshi qilingan ishlar, Sizlarga bo'lgan do'stona munosabatimiz yo'lidagi samaralarimiz haqida hikoya qilib berish uchun Siz ulug' zotlar tomon yo'lladik", - deb o'z maqsadlarini aytib o'tadi.

Amir Temur elchiga katta ishonch bildirish uchun uni har ikki davlatning elchisi deb hisoblaydi. "Mamlakatimiz o'rtasida bordi-keldini yo'lga qo'ymoq bilan davlatlarimizni ziyoda qilishlarini va savdodan yaxshi foyda olishlarini istaymiz. Darhaqiqat, savdogarlaringizning biz tomonlarda xavfsizligi ta'minlanishini ta'kidlash joiz", - deb yana avvalgi taklifini, savdogarlarning tinch-osoyishtaligini kafolatlashni o'z zimmasiga oladi. Amir Temur davrida birinchi marta G'arb va Sharq savdo aloqalari muammosi rasmiy masala sifatida qo'yilgan.

Misrlik tadqiqotchi olim Fathi al-Guveyli ham haqli ravishda "Amir Temur tomonidan boshqa davlatlar arboblari bilan munosabatlarda qo'llangan diplomatik usullar va ularning ayrim nozik jihatlari nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga arzigulikdir" - deb ta'kidlagan.

Fathi al-Guveyli "Amir Temurga teran aql-farosat va ziyraklik xos bo'lib, bu sifatlar diplomat shaxsning eng muhim jihatini va asosini tashkil etadi. Amir Temur u yoki bu mamlakatga o'z elchilarini yuborib, boshqa davlatlar elchilarini qabul qilib, qirol va amirlar bilan diplomatik yozishmalar o'rnatib, bu sohaning shakl mazmunlarini yanada boyitdi"¹⁵ - deb yozadi.

Fikrimcha, Amir Temur faoliyatidagi birinchi xususiyat va omil uning nozik diplomatik taktikasi va insonparvarligidir. Sohibqiron amir Temur har qanday sharoitda ham diplomatiya mezonlariga qat'iy amal qildi va bu qoidalarga xilof ish qilmadi.

B.S. Mannonov ham "Temur diplomatiyasining o'ziga xos tomonlaridan biri, u o'zining barcha murojaatlarida, hatto qat'iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham, Sharq diplomatiyasi estetikalariga rioya qiladi. Uzoq yurtlar hukmdorlarining qo'pol shaklda, ayrim hollarda nihoyatda jahl va tahqir bilan yozilgan nomalariga ham Sohibqiron hamma vaqt o'z fikrlarini aniq bayon qilgan holda sokin va odob bilan javob qilardi. Amir Temurning shaxsan o'zi "elchilarga o'lim yo'q" degan qadim-qadimdan qolgan diplomatik qoidaga doimo amal qilgan va o'z qo'l ostidagilardan bu qoidani hech qachon aslo buzmasliklarini talab qilgan"¹⁶, - deb yozgan.

Amir Temurning Misr hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari ham ibratlidir. Misr hukmdori Barquq, uning vafotidan keyin taxtga o'tirgan Faraj Amir Temurning yaqin kishisi bo'lgan Otlamishni asirda ushlab, qaytarish talabiga javob bermay vaqtini cho'zadi. Biroq Amir Temurning Shom va Halabdagi g'alabalaridan keyin undan cho'chigan Faraj qilmishidan pushaymon bo'lib, Otlamishni ozod qiladi va uni vasila qilib

¹⁵ Fathi al-Guveyli. Amir Temur diplomatiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 1996, 108-bet

¹⁶ Mannonov B.S. Amir Temur diplomatiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - B.105

behisob sovg'a-salomlar bilan Amir Temur huzuriga jo'natadi. Shundan keyin ham Amir Temur uning otasiz o'sganligini inobatga olib, uni o'z o'g'li sifatida qabul qiladi va "uning qo'liga quvvat beraman"¹⁷, - deydi.

Qat'iyat, maqsadga intilish, tirishqoqlik, imkoniyatdan maksimal va to'g'ri foydalana bilish, yuksak axloqiy qadriyatlar, muzokara olib borish orqali masalani tinchlik yo'li bilan hal qilish, tezkor harakat qilish, raqibiga payt poylab zarba berish kabi usullar uning diplomatiyasidagi o'ziga xos xususiyatlardan bo'lgan. Amir Temur diplomatiyaning tahdid, ogohlantirish bilan birga tashviqot usullaridan keng foydalanishga intilgan. Bu esa o'sha davrning o'ziga xos informatsion kurashlaridan edi. Sohibqiron Amir Temur diplomatiyasi maslahat, kengashga asoslangan bo'lib, so'nggi xulosa chiqarilgan qat'iy qarorlar qabul qilgan. O'zining diplomatik aloqalari, xatti-harakatlari bilan Amir Temur o'z davrigacha mavjud bo'lgan diplomatiya ilmini umuminsoniy g'oyalar, yuksak axloqiy fazilatlar bilan boyitdi. Uning shakli, etikasi, mazmunini go'zallashtirib, o'z davri darajasidan yuqoriga olib chiqdi. Sohibqiron Amir Temur diplomatiyasida mardlik va jasorat bir-birini to'ldiruvchi asosiy arkonlardan edi.

Tarixchi Ibn Arabshoh keltirgan bir xatda, garchang voqea birmuncha bo'rttirilgan bo'lsa ham, bunday usulni misol tariqasida keltirish mumkin: "Bilinglar, biz Alloh qo'shinlari bo'lib, uning qahridan yaratilganmiz va uning g'azabi tushgan har bir kishi ustidan bizga hokimiyat berilgan: biz shikoyat qiluvchini ayamaymiz, yig'lovchining ko'z yoshiga rahm qilmaymiz – bizning qalblarimizdan tangri rahmdillikni yulib olgan: bizning amrimizga amal qimagan har bir kishi ustiga qayg'u alam keladi. Biz mamlakatlarni xarob qildik, bandalarni halok etdik va yer yuziga fasodni zohir qildik; bizning qalbimiz go'yo tog'lar, adadimiz qumlar singari, otlarimiz o'zg'ir, nayzalarimiz tilka pora qiluvchi; bizning mulkimizga tajovuz qilinmaydi, qo'shinimiz ranjitilmaydi. Agar siz shartimizni qabul etib, amrimizga muvofiq ish qilsangiz, unda nimaiki o'zimiz uchun bo'lsa siz uchun ham, bizga qarshilik qilsangiz va sitamni davom ettirsangiz unda faqatgina o'zingizdan o'pkalang; bizga qo'rg'onlar mone bo'la olmaydi; bizni daf qilish uchun tilab olgan duolaringiz mustajob bo'lmaydi va tinglanmaydi"¹⁸.

Sohibqiron Amir Temur eng shoshilinch va murakkab vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmas, bosiq va vazmin holatda masalaning yechimini topishga intilardi. Uning diplomatiyasida o'ziga xosliklardan biri shundaki, u o'z dushmanlarining barcha zaif tomonlarini sinchkovlik bilan o'rgangan va shunga yarasha tadbirlar qo'llagan.

Xilda Xukxem Amir Temurning josuslari haqida ko'plab qiziqarli faktlar berib o'tgan. Amir Temur o'zi yurish qilmoqchi bo'lgan yerlarga shayx, savdogar, sayyoh niqobi ostida o'z josuslarini yo'llagan va ular orqali o'sha yerda ro'y berayotgan barcha voqea hodisalar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lgan. U hatto xavfli jangovor jinoyatchilar, hunarmandlar, munajjimlar, tabiblar, daydilar, dengizchilar, qo'shiqchilar, donishmandlar, ustomon qariya kampirlarni ham o'zga diyorlarga yo'llab ular orqali eng karakli ma'lumotlarni qo'lga kiritar va shularga monand chora-tadbirlarni avvaldan belgilagan.

Xilda Xukxem Amir Temur Suriyani zabt etishda guvoh bo'lgan Mignanellining ma'lumotlariga tayanib, Aleppo sinagogida Amir Temur odamlarining o'zlarini juhud deb

¹⁷Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan o'giruvchi Yunusxon Hakimjonov. Toshkent: O'zbekiston, 1996.B.354.

¹⁸ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I kitob... - B.167-168.

tanitganliklari va hatto talmutlarda parchalarni ustamonlik bilan qiroat qilib berganlari haqida aytib o'tgan¹⁹. Amir Temur tomonidan tayyorlangan maxsus kishilar arab, fors, yunon va boshqa tillarni yaxshi bilganlar.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda, qudratli saltanat asoschisi Amir Temur o'z davlatida yetuk xalqaro diplomatiyani shakllantira olgan bo'lib, o'zi ham uning barcha qoidalariga to'liq amal qilardi.

Amir Temur davridagi diplomatik yozishmalar milliy tarimizdagi muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytilganidek u har qanday vaziyatda ham xalqaro qoida va shartlarga amal qilib, ustamonlik bilan muammoni hal qilgan.

Amir Temur hukmdorlarning har bir harakati xalqning taqdiri bilan bog'liq deb bilgan va diplomatik munosabatlarda ham nizolarni imkon qadar kelishish yo'li bilan hal qilgan. U zarur paytda harbiy kuch ishlatgan bo'lsa, boshqa holatlarda muzokaralar va kelishuvlar orqali maqsadiga erishgan. Shunday qilib, Temur diplomatiyasi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham xalqaro munosabatlar tizimi uchun muhim tarixiy tajriba va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. O'ljayeva – Amir Temur diplomatiyasi Toshkent 2018
2. L. Keren – “Amir Temur saltanati” Toshkent 1999
3. A.Saidov –“Amir Temur va Fransiya” Toshkent 1996
4. F. Guveyli – “Amir Temur diplomatiyasi” Toshkent 1996
5. B.S. Mannonov “Amir Temur diplomatiyasi” Toshkent 1996
6. I.Arabshoh “Amir Temur tarixi I-qism” Mehnat 1991
7. X. Xilda “Властитель семи созвездий” Toshkent 1995

¹⁹Xukhem Xilda. Властитель семи созвездий. Toshkent: Adolat, 1995.B.71.